

PUDRAT SHARTNOMASI № 90

Paxtaobod tuman

22 iyun 2022-yil

Ushbu pudrat shartnomasi «Buyurtmachi» deb ataluvchi Paxtaobod tuman MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI uning nomidan nizom asosida ish olib boruvchi raxbari **S.Abdullayeva** bir tomondan va «Pudratchi» deb ataluvchi «Ta'minot savdosotiqt» M.CH.J uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **I.Daminov** ikkinchi tomondan isitish tizimini kapital ta'mirlash ishlariga doir pudrat shartnomasini tuzdilar ushbu xaqida:

1. Shartnomaning mavzusi

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi» ning defektniy akt va smeta xujjalariha hamda 20.06.2022 yil kungi № 22110012104285 lotga asosan isitish tizimini kapital ta'mirlash ishlarini bajarib beradi.

2. Shartnomaning bahosi va hisob-kitob tartibi

2.1. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan loyixa smeta asosida to'liq bajaradi va pudrat ishlarining umumiyligi qiymati **278 500 000** (Ikki yuz etmis sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil etib ta'mirlash ishlarini 7 kun mobaynida sifatli qilib bajarib beradi.

2.2. Bajariladigan ishlar qiymati uzil kesil hisoblanib, faqatgina ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganidan va fors major holatlari sabab bo'lganida qayta ko'rib chiqilib, tomonlar o'rtasida qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

2.3. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingandan so'ng 5 bank ish kunida «Buyurtmachi» bajariladigan ishlar umumiyligi qiyamatining 30 foizini **83 550 000** (Sakson uch million besh yuz ellik ming) so'mni, oldindan avans tariqasida «Pudratchi»ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, ya'ni **194 950 000** (Bir yuz to'qson to'rt million to'qqiz yuz ellik ming) so'mni «Pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar dalolatnomasi (F-3) asosida o'tkazib beradi.

2.5. «Buyurtmachi» oxirgi to'lovnini «Pudratchi» tomonidan ish to'liq bajarib topshirilib, qabul qilish – topshirish dalolatnomasi (F-3) va bajarilgan ishlar qiyatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida o'tkazib beradi.

2.6. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, ya'ni **194 950 000** (Bir yuz to'qson to'rt million to'qqiz yuz ellik ming) so'mni «Pudratchi» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatları.

3.1. «Pudratchi»ning majburiyatları

Shartnoma imzolangandan so'ng ish bajarilgan obektni «Buyurtmachi»dan dalolatnomaga (F-2) asosan qabul qilib oladi. Mazkur shartnomada ilova qilinadigan loyiha smeta xujjaliga muvofiq birinchi avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 5 kun muddat ichida ishlarni bajarishga kirishadi. Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta xujjalariha muvofiq mazkur

shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish xamda «Buyurtmachi»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

3.2. «Pudratchi»ning huquqlari

Bajarib berilgan ish uchun oldindan avans haq to'lanishi va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la hajmda xisob-kitob qilinishini talab qilish;

Bajarib berilgan ishni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplashini talab qilish;

3.3. «Buyurtmachi» ning majburiyatları

Tasdiqlangan smeta bo'yicha bajarilgan ishlarni qabul qilib olish;

Bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida haq to'lash;

3.4. «Buyurtmachi»ning huquqlari

«Pudratchi»dan amaldagi davlat standartlariga va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

«Pudratchi»dan shartnomada ko'rsatilgan ishlarni qabul qilish kommissiyasi ishtirokida smeta hujjatlari asosida ishni sifatli bajargan holda qabul qilib olish;

«Pudratchi» tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarni shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish:

4. Tomonlarning javobgarligi.

O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi subyektlarni faoliyatni shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan belgilanadi.

4.1.Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «Pudratchi» ob'ektni o'z vaqtida toprishmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatları bajarilmagan qismining 0.5 foiz miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan jarima summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.3.Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «Pudratchi» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa «Buyurtmachi» to'lovlar to'xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20 foizi miqdorida «Pudratchi» jarima to'laydi.

4.4.Bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan o'z vaqtida haq to'lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan jarimaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarining 50 foiz miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

5. Fors major holatlar.

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

6. Shartnomani o'zgartirish, bekor qilish va nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muhokama yo'li bilan hal etiladi. Agarda o'zaro muhokama yo'li bilan hal etish imkon bo'lmasa Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisod sudi orqali hal etiladi.

7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Shartnoma tomonlar muhri bilan imzolanib, xududiy G'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham huquqiy jihatdan teng kuchli hisoblanadi.

8. Tomonlarning rekvizitlari

«Pudratchi»

Nomi: «Ta'minot savdo-sotiq»M.Ch.J

Manzili: Paxtaobod sh Bobur mfy
A.Temur ko'chasi 49 uy
Bank nomi: Milliybank Andijon bo'limi
X/r: 20208000700281641001

MFO: 00074

STIR (INN): 200974089

XXTK-(OKONX):



I.Daminov


«Buyurtmachi»

Nomi: Paxtaobod tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi

Manzili: Paxtaobod tuman A.Temur ko'chasi
SHXR:401722860032327091100251001
STIR (INN):305 157 124

XXTK (OKONX): 92400

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
G'aznachiligi
X/R:2340 2000 3001 0000 1010



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

№ DC60835703

2022 yil 27 iyun

Paxtaobod tumani

1. Loyihaning turi - Shartnoma

2. Loyihaning nomi - Qo'shimcha kelishuv qilish to'g'risida.

Biz qo'shimcha kelishuv tuzuvchilar kelgusida «Buyurtmachi» deb ataluvchi Paxtaobod tuman MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI uning nomidan nizom asosida ish olib boruvchi raxbari **S.Abdullayeva** bir tomondan va «Pudratchi» deb ataluvchi «Ta'minot savdo-sotiq» M.CH.J uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **I.Daminov** ikkinchi tomondan isitish tizimini kapital ta'mirlash ishlariga doir pudrat shartnomasini tuzdilar ushbu xaqida:

Shartnomaning mavzusi

«Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi» ning defektniy akt xujjalariha hamda 20.06.2022 yil kungi № 22110012104285 lotga asosan 278 500 0000 (ikki yuz yetmish sakkiz million besh yuz ming) so'mlik isitish tizimini kapital ta'mirlash ishlarini bajarib beradi.

Eski taxrirda:

2022 yil 22 iyunda tuzilgan 90 sonli shartnomaning 1.1 bandiga o'zgartirish kiritilib joriy ta'mirlash so'zi o'mniga isitish tizimini kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirishi so'zlariga o'zgartirilganligi to'g'risida mazkur shartnomaga o'zgartirish kiritildi.

Asos: 2022 yil 22 iyun kungi 90-sonli shartnoma.

Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Loyiha Paxtaobod tuman Maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan 2022 yil 27 iyun kuni ishlab chiqilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjalariha muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti**



M.Ismoilova.